O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

TA’LIM VA ILM-FAN VAZIRLIGI

Nukus davlat pedagogika instituti

«TASDIQLAYMAN»
Ilmiy ishlar va innovatsiyalar
bo‘yicha prorektor v.v.b
_____A.Berdibaev
“_28_”- _oktyabr_____ 2026 jil

10.00.01 – O‘ZBEK TILI IXTISOSLIGI BO‘YICHA MUTAXASSISLIK FANLARIDAN TAYANCH DOKTORANTURAGA KIRISH IMTIHONI

DASTURI

Nukus– 2026

K I R I SH

Mazkur dastur O‘zbekiston Respublikasi DTS, O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi va “Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi to‘g‘risida”gi qonunlari asosida va uning talablariga muvofiq tuzildi.

Dasturni tayyorlashda “Nazariy tilshunoslik masalalari”, “Matn tilshunosligi”, “Pragmalingvistika”, “Lingvokulturologiya”, “Psixolingvistika”, “Til tarixi”, “Tilshunoslik nazariyasi”, “Tilshunoslik va tabiiy fanlar”, “Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi”, “Uslubshunoslik muammolari”, “Hozirgi o‘zbek tili”, “O‘zbek tili ta’limida zamonaviy axborot texnologiyalari” fanlari dasturlariga tayanildi.

Nukus davlat pedagogika institui kengashisining 2026-yil 22-oktyabrdagi 3-sonli yig‘ilishida muhokama qilinib, foydalanishga tavsiya etilgan.

Tuzuvchilar: **F.f.d(DSc), professor G.Kurboniyazov**
f.f.n., dotsent M.Xudayarova

Taqrizchilar:
O.Cho‘ponov – filologiya fanlari doktori, dotsent (UrDU)
A.Madaminov – filologiya fanlari doktori, dotsent (QDU)

Nazariy tilshunoslik masalalari

Nazariy tilshunoslik masalalari kursiga kirish. Fanning maqsadi va vazifasi. Til va nutq antinomiyasi. Til strukturasi va funksiyasi. Tilning belgilik xususiyatlari. Til birliklarining belgisiz xususiyatlari. Til ochiq va dinamik sistema sifatida. Morfologik sathning ikki tipi. Sintaktik sath birliklari. Tilning leksik-semantik sathi. Til strukturasi nazariyasi. Izomorfizm. Til sathlari iyerarxiyasi. Nutqiy sistemaning struktur xususiyatlari. Empirik va ratsional bilishda til va tafakkur munosabati. Til va ruhiy faoliyat.

Tilshunoslikning dolzarb muammolari

An'anaviy va sistemaviy tilshunoslik munosabati masalalari. An'anaviy yo'nalishlar. Yangi yo'nalishlar. Fonetika va fonologiya muammolari. So'z yasalishi muammolari. Morfemika muammolari. Leksikologiya muammolari. Lingvistikada maydon nazariyasi. Morfologiya. So'z turkumlari talqini. Mustaqil so'zlar. Yordamchi so'zlar talqini. Sintaksis. Yangi qarashlar. Gap bo'laklari talqini. Binar va trenar tamoyillar. Mazmuniy sintaksis. Lingvistik ta'limotlar tarixi. Struktur tilshunoslikning asoslari va yo'nalishlari. Lingvistik nisbiylik nazariyasi. Jahon tilshunosligidagi yangi yo'nalishlar. O'zbek ilmiy tilshunosligining rivojlanishi.

Lingvokulturologiya

Fanning nazariy mashg'ulotlari mazmuni. Til, madaniyat va inson.

Tilshunoslikda "paradigma" tushunchasi. Tilshunoslikda paradigmalarning o'zgarishi masalasi. Paradigmalarning qiyosiy-tarixiy, sistem-struktur va antropotsentrik turlari. Bilimlarning yangi antropotsentrik paradigmasi va uning lingvokulturologiyadagi o'rni. Lingvokulturologiyaning boshqa fanlar orasidagi maqomi. Lingvokulturologiyaning etnolingvistika, sotsiolingvistika va etnopsixolingvistika bilan chambarchas bog'liqligi.

Madaniyat va uning o'rganilishi. Lingvokulturologiya tarixi va nazariy asoslari. Lingvokulturologiyaning tadqiqot obyekti, predmeti, maqsadi va vazifalari. Lingvokulturologiya metodologiyasi va metodlari. Lingvokulturologiyaning asosiy tushunchaviy-terminologik apparati. Til va madaniyat. Til va madaniyatning o'zaro aloqasi. Fanda "til-madaniyat" masalasining o'rganilishi: V. fon Gumboldtning "til-madaniyat" haqidagi lingvistik ta'limoti. E. Sepir, B. Uorf, K. Fossler, F. de Sossyurlarning til va madaniyatning o'zaro aloqadorligi xususidagi qarashlari. Madaniyat haqidagi tasavvurlarning tilda namoyon bo'lish usullari.Olamning lisoniy manzarasi.Olamning konseptual manzarasi. "Geshtalt" tushunchasi.

Lingvomadaniy birliklarning tahlili. Metafora – madaniyatning ko'rsatkichi. Madaniy makondagi ramz va stereotip hodisalari. Lingvomadaniyatda lakuna muammosi. Paremalarning lingvomadaniy jihatlari. Insonning til va madaniyatdagi o'rni. Inson – milliy mentallik va til egasi. Til kommunikatsiya va fikrlarni ifodalash vositasi. Insonning adabiy janrlarda tadqiqotning asosiy obyekti

ekanligi. Turli millat vakillarining o‘ziga xos avtoportreti. Til inson shaxsini aniqlashda muhim vositalardan biri. Lisoniy shaxs. Lisoniy shaxsni shakllantiruvchi omillar. Y.N.Karaulovning lisoniy shaxs haqidagi qarashlari. Lisoniy shaxs mohiyatining tarkibiy qismlari: qadriyat, madaniyat, individuallik. Erkak va ayolning jamiyat, madaniyat hamda tildagi o‘rni. Madaniyatda “erkak – ayol” ziddiyati. Ayol va erkak ramzlari. Madaniyat va tildagi gender kategoriyasi. Ayol va erkaklar nutqining ijtimoiy tabiati va o‘ziga xos xususiyatlari. Mif, folklor va tilda inson obrazi.

Matn tilshunosligi

Matn tilshunosligining maxsus o‘rganilishi. Til birligi. Gap tushunchasi. Til tizimida matn sathi. Nutqning emotsionalligi va ekspressivligini ifodalovchi vositalar. Matn – kommunikatsiyaning asosiy birligi. Matnning aktual bo‘linishi: matnda tema va rema munosabati. Matn turlari. Uyg‘ur yozuvi obidalari. Eski o‘zbek yozuvi matnlari. XIV-XV asr matnlari. XIX asr matnlari. XX asr o‘zbek tili matnlari.

Pragmalingvistika

Lingvistik belgining umumsemiologik tabiati. Lingvistik pragmatikaning amaliy shakllanishi. Lingvistik pragmatikaning nazariy shakllanishi. Lingvistik pragmatikaning umumiy masalalari. Lingvistik pragmatikaning xususiy masalalari. Pragmalingvistika haqida nazariyalar. Olmosh va atoqli otlarning pragma-semantik tabiati. Pragmalingvistikaning til sathlariaro munosabati. Pragmatika va semiotika.

Til tarixi

O‘zbek adabiy tili va uning tarixiy ildizlari. O‘zbek xalq tili taraqqiyotining ilk davri. M.Koshg‘ariyning «Devonu lug‘otit turk» asari. M.Koshg‘ariy – qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning asoschisi. Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig» asari tili. A.Yassaviyning «Devoni hikmat» asari, lingvistik xususiyatlari. «Qissasi Rabg‘uziy» asari tili. Chig‘atoy ulusining adabiy tili – Oltin O‘rda adabiy tili. «Muhabbatnoma».

XI-XIV asrlar rasmiy hujjatlar tili va uslubi. XIV-XVII asrlar tili adabiy til takomili. Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy asarlari tili. A.Navoiy – o‘zbek adabiy tilining asoschisi. «Muhokamat ul - lug‘at ayn» asari.

XVII-XIX asrlarda o‘zbek adabiy tili. Abulg‘ozi Bahodirxon, M.Xoksor v.b.

XV-XIX asrlarda yaratilgan lug‘atlar. Aloyi binni Muhibiy, Tole Imoniy, Muhammad Rizo, Muhammad Yaqub Chingiy, Mirzo Mehdixonning lug`atlari.

XIX asr oxiri - XX asr boshlari o‘zbek adabiy tili. Til va uslub meyorlarining shakllanishi. Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Avaz O‘tar xizmatlari. Publitsistik uslubning paydo bo‘lishi.

XX asr o‘zbek adabiy tilining muhim xususiyatlari.

Tilshunoslik nazariyasi

Tilshunoslik fanining predmeti va vazifalari. Tilshunoslik fan sifatida.

Tilshunoslikning boshqa fanlar bilan bog‘liqligi. Tilning belgilik tabiati. Sistema va struktura. Til sistemasining sathlari. Til va nutq. Paradigmatika va sintagmatika. Til va tafakkur. Til va jamiyat, sotsiolingvistika. Tilning kelib chiqishi. Til va yozuv. Tillarning tasnifi. Lingvistik oqimlar va metodlar.
Tilshunoslik tarixi. Qadimgi hind tilshunosligi. Qadimgi grek tilshunosligi. O‘rta asrlarda arab tilshunosligi. Markaziy Osiyo tilshunosligi tarixi. Mahmud Koshg‘ariy, Mahmud Zamaxshariy, Alisher Navoiy va boshqalar. O‘rta va yangi asrlarda Yevropa tilshunosligi. V.Gumboldt, A.A.Potebnya, F.de Sossyur va boshqalar ta’limoti. XX asr struktural tilshunosligi. Funksional lingvistika. Glossematika. Amerika deskriptiv lingvistikasi. XX asr boshlari o‘zbek tilshunosligi. Mustaqillik davri o‘zbek tilshunosligi. O‘zbek sistem tilshunosligi. Tilshunoslikdagi yangi yo‘nalishlar.

Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi

Kursning maqsad va vazifalari. Turkiy tillar taraqqiyotining umumiy tomonlari. Oltoy tillar guruhi. Tungus-manjur va turk mo‘g‘ul tillarining o‘zaro munosabati. Turkiy tillar areali. Turkiy tillar fonetikasi. Genetik o‘xshashliklar, unli va undoshlar, singarmanizm va urg‘u. Turkiy tillarning leksik xususiyatlari. Umumturkiy so‘zlarning muhim belgilari. Grammatik xususiyatlari. Ot. Kelishik, egalik, son kategoriyasi. Sifat, son, olmosh, fe’l so‘z turkumi. Shaxs-son, nisbat, mayl va boshqa kategoriyalar. Yordamchi so‘z turkumlari. Sintaktik xususiyatlari. So‘zlarning birikish usullari. Sodda va qo‘shma gaplar.

O‘zbek dialektologiyasi

Maqsad va vazifalar. Boshqa fanlar bilan aloqasi. O‘zbek shevalari va dialektlari. O‘zbek shevalarining o‘rganilishi. Transkripsiya. Lingvistik geografiya haqida. Areal lingvistika.

O‘zbek shevalari fonetikasi. Unli va undosh fonemalar sistemasi. Og‘zaki nutq xususiyatlari.

O‘zbek shevalari leksikasi. An’anaviy leksika. Shevalarni farqlovchi asosiy lug‘at xususiyatlari, ularda pleonazm.

Shevalarning grammatik xususiyatlari. Otlarda ko‘plik, egalik. Fe’l mayllari. Fe’l zamonlari. Fe’l nisbatlari. Ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklamalar. Uch lahjaga xos farqlanishlar.

Sintaksis. Dialektal sodda gaplar. Qo‘shma gaplarning dialektal belgilari.

Hozirgi o‘zbek tili

Fonetika. Fonetikaning predmeti, mundarijasi. Nutq tovushlarining uch aspekti. Unli va undosh fonemalar, ularning tasnifi. Fonetik jarayonlar. Urg‘u va bo‘g‘in.

Leksikologiya. Kirish. So‘zning semantik strukturasi. Monosemiya va polisemiya. Ma’no ko‘chishi, kengayishi va torayishi. Iboraning semantik strukturasi. So‘zlarning shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra turlari. Lug‘aviy

birliklarning tarixiy-etimologik shakllanishi jihatidan tavsifi. Iste’mol doirasiga ko‘ra o‘zbek tilidagi so‘zlar, chegaralanmagan va chegaralangan leksika. Ekspressiv-emotsional leksika. Leksikografiya va lug‘at tiplari. LSG va mazmuniy maydon.

Grammatika. Morfemika. So‘zning morfem tuzilishi. O‘zak va affiksal morfema. Affiksoidlar, so‘zning morfem tuzilishidagi ayrim o‘zgarishlar.

So‘z yasash usullari. O‘zbek tilida so‘z yasalishi. So‘z turkumlarida so‘z yasalishi.

Morfologiya. So‘zlarni turkumlarga ajratish tamoyillari. Konversiya va uning ko‘rinishlari. So‘z turkumlarining ko‘chishi.

Ot. Otning ma’no turlari. Grammatik ko‘rsatkichlari. Kelishik, egalik va son kategoriyasi.

Sifat. Ma’no turi. Daraja kategoriyasi.

Son. Ma’no turi. Grammatik xususiyatlari. Numerativlar.

Olmosh. Leksik-morfologik xususiyatlari. Sintaktik vazifasi.

Fe’l. Ma’no turlari. Fe’lning grammatik kategoriyalari. Mustaqil va yordamchi fe’l. Ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmasi. To‘liqsiz fe’l. Fe’lning funksional shakllari. Ravish. Ma’no turi. Grammatik belgilari. O‘zbek tilshunosligida ravishning talqini. Yordamchi so‘zlar. Ko‘makchi. Bog‘lovchi. Yuklama.

Sintaksis. «Sintaksis» kursiga kirish. Sintaktik birliklar. Sintaktik munosabat. Sintaktik qurilish. Sintaktik aloqa. Sintaktik qayta bo‘linish.

Gapda so‘zlarning bog‘lanish yo‘llari. Sintaktik aloqa turlari. Tobe aloqa turlari. So‘z birikmasi, komponentlar orasidagi munosabatlar.

Gap. Uning belgilari, tasnifi. Gapning aktual bo‘linishi. Tema. Rema.

Gap bo‘laklari. Ularning tasnifi. Bosh bo‘laklar, ularning talqini. Ikkinchi darajali bo‘laklar, ularning turlari. Aniqlovchining gapdagi maqomi. Sodda gapni murakkablashtiruvchi vositalar.

Uyushiq bo‘laklar. Ajratilgan bo‘laklar. Kirish konstruksiyalari.

Qo‘shma gap. Asosiy belgilari. Qo‘shma gaplar tasnifi.

Bog‘lagan qo‘shma gaplar, ularning mazmuniy turlari.

Ergash gapli qo‘shma gaplar va ularning tasnifi.

Ergash va bosh gaplarni farqlash asoslari, ularni biriktiruvchi vositalar. Ergash gaplar tasnifi, ularni ajratish tamoyillari. Ergash gapli qo‘shma gap turlari.

Bog‘lovchisiz qo‘shma gap. Strukturasi, tasnifi. Ularda tinish belgilari.

Murakkab qo‘shma gaplar. Bog‘lanish, ergashish yo‘li bilan tuzilgan qo‘shma gaplar. Bir necha ergash gapli qo‘shma gaplar. Bog‘lanish usullari. Sintaktik sinkretizm.

Gapda shakl va mazmun. Shakliy va mazmuniy birliklar o‘rtasidagi nomutanosiblik.

Nutq madaniyati

“Nutq madaniyati” kursiga kirish. Nutq odobi. Voizlik mahorati va nutq odobi. Muloqot xulqi va milliy mafkura. Sukut va kommunikativ mazmun notiqlikning birinchi sharti. Muloqot xulqining hudud jihatdan xoslanishi. So‘z va siyrat. Paralingvistika va muomala madaniyati. Muloqot xulqining funksionallashuvi. Notiqlikda Navoiy saboqlari.

Kirish imtihonining yozma ish shaklida o‘tkazish tartibi va baholash mezoni

Doktoranturaga kirish sinovlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 22 maydagi 304-son Qarori bilan tasdiqlangan «Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qaroriga muvofiq tashkil qilinadi.

Doktoranturaga kirish sinovi umumiy ballari quyidagilardan tashkil topadi:

Doktoranturaga kirishda tanlagan mutaxassislik bo‘yicha bilim darajasini belgilovchi maxsus fanlardan sinov o‘tkaziladi (baholash mezoni 0 balldan 100 ballgachani tashkil etadi);

Kirish sinovlari faoliyatiga quyidagilar kiradi: doktorantning ilmiy-nazariy, ma’naviy-ma’rifiy va amaliy tayyorgarligini baholash, biologiya mutaxassisligi bo‘yicha malaka berish masalasini hal etish, oliy o‘quv yurtida mutaxassislar tayyorlashni takomillashtirish borasida takliflar kiritish.

Kirish sinovlari ishlarini baholash 100 ballik tizim asosida amalga oshiriladi.

Kirish sinovida 86-100 ball (jami balning 86-100%) fanni mukammal o‘zlashtirgan, variantda ko‘rsatilgan savollarga so‘z va iboralardan foydalanib, nazariy jihatdan asoslagan, chuqur va ilmiy-tahliliy tarzda yorita olgan talabgorlarga qo‘yiladi. Shuningdek, bunda talabgorning mustaqil ko‘nikmalari va qo‘shimcha manbalardan foydalanganligi ham hisobga olinadi.

Kirish sinovi 71-85 ball (jami balning 71-85%) fanni o‘zlashtirgan, variantda ko‘rsatilgan savollarga so‘z va iboralardan foydalanib javob bermagan, lekin faqat savolning o‘zi bilan cheklanib, tavsiya etilgan darslik va qo‘llanmalarda berilgan fikrlardan ijodiy foydalana olgan, qo‘shimcha adabiyotlardan foydalana olmagan talabgorlarga qo‘yiladi.

Kirish sinovidan 56-70 ball (jami balning 56-70%) fanni qisman o‘zlashtirgan, qo‘yilgan savollarga qisman javob bera olgan, qo‘shimcha adabiyotlardan foydalana olmagan talabgorlarga qo‘yiladi.

Kirish sinovida 55% dan kam ball savollarni yoritishda so‘z va iboralarga qoniqarli javob bermagan, variantdagi savollarga javoblarini to‘liq yorita olmagan, ilmiy jihatdan asoslamagan talabgorlarga qo‘yiladi.

Barcha doktorantlar mutaxassislik bo‘yicha kiruvchilarni mutaxassislik fanlardan reytinglarini aniqlashda, baholash mezoni quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

–Sinov bilet asosida «yozma ish» usulida o‘tkaziladi;

–har bir biletga 5 (besh) tadan savol kiritiladi;

–har bir bilet Davlat standartlari bo‘yicha magistrantlar tayyorlash dasturiga kiritilgan mutaxassis fanlarni asosiy tushunchalaridan tashkil topadi;

–Biletga kiritilgan har bir savol 20 (jami 100) ballik sistemada baholanadi.

DOKTORANTURAGA KIRUVCHILARNI
BILIMINI BAHOLASH MEZONI

№	Doktoranturaga kiruvchining bilim darajasi	Ball
1	Nazariy jihatdan chuqur bilimga ega bo'lib, mustaqil mushohada yuritib, masalaning mohiyatini tushinib, bu haqda chuqur tasavvurga ega, ilmiy jihatdan asoslagan, qo'shimcha manbalardan foydalangan	17-20
2	Berilgan masala haqida mustaqil mushohada yuritgan, uning mohiyatini tushunib, u haqda tasavvurga ega bo'lgan, masalaning o'zi bilan cheklanib, qo'shimcha manba va adabiyotlardan foydalana olmagan	14-16
3	Masalaning mohiyatini tushunib, u haqda tasavvurga ega bo'lgan, savolga qisman javob bera olgan, qo'shimcha adabiyotlardan foydalana olmagan	11-13
4	Berilgan masala haqida aniq tasavvurga ega bo'lmagan, savolga qisman javob yozgan, manbaalarda bor ma'lumotlarni to'liq keltirmagan	0-10

Kirish imtihonining test sinovi shaklida o‘tkazish tartibi va baholash mezoni

Kirish imtihoni ko‘p variantli test sinovi shaklida o‘tkazilsa har bir variant 100 ta yoki 50 ta test savollaridan iborat bo‘ladi. Test sinovini baholash 100 ballik tizim asosida amalga oshiriladi.

Talabgorlar bilim darajasini belgilashda 100 ta savoldan iborat test sinovi o‘tkazilganda:

- test sinovida 86-100 oralig'ida to‘g‘ri javobni topgan talabgorlarga mos xolda 86-100 ball qo‘yiladi.
- test sinovida 71-85 oralig'ida to‘g‘ri javobni topgan talabgorlarga mos xolda 71-85 ball qo‘yiladi.
- test sinovida 55-70 oralig'ida to‘g‘ri javobni topgan talabgorlarga mos xolda 55-70 ball qo‘yiladi.
- test sinovida 55 tadan kam to‘g‘ri javobni topgan (55 baldan kam ball yig‘gan) talabgorlar sinovdan o‘tmagan hisoblanadi.

Talabgorlar bilim darajasini belgilashda 30 ta savoldan iborat test sinovi o‘tkazilganda:

- test sinovida 26-30 oralig'ida to‘g‘ri javobni topgan talabgorlarga mos holda 86-100 ball qo‘yiladi.

- test sinovida 22-25 oralig’ida to‘g‘ri javobni topgan talabgorlarga mos holda 71-85 ball qo‘yiladi.
- test sinovida 17-21 oralig’ida to‘g‘ri javobni topgan talabgorlarga mos holda 55-70 ball qo‘yiladi.
- test sinovida 17 tadan kam to‘g‘ri javobni topgan (55 baldan kam ball yig‘gan) talabgorlar sinovidan o‘tmagan hisoblanadi.

Kirish imtihoni bo‘yicha umumiy o‘zlashtirish ko‘rsatkichi 0 dan 100 balgacha baholanadi (86-100 ball – a’lo, 71-85 ball – yaxshi, 55-70 ball – qoniqarli, 0-54 ball – qoniqarsiz)

ESLATMA: *Doktoranturaga kirish imtihonlari jarayonida qo‘yilgan bahodan norozi bo‘lgan talabgorlar yakuniy baholar e’lon qilingan kundan e’tiboran 24 soat muddat ichida appelyatsiya komissiyasiga murojaat qilishga haqli. Doktoranturaga kirish imtihonlari komissiyasi va talabgor o‘rtasida baholash ballari bo‘yicha yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolar maxsus appelyatsiya komissiyasi tomonidan ko‘rib chiqiladi hamda imtixon raisi bilan kelishilgan holda xulosa qilinadi.*

Asosiy adabiyotlar:

1. Sayfullaeva R. va b. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. (Darslik) –T., 2025
2. Qodirov Z. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. (Darslik). –Toshkent: Metodist, 2025.
3. Iskandarova Sh. O‘zbek tilshunosligining dolzarb masalalari. (Darslik). – Farg‘ona, 2024.
4. Iskandarova Sh., Naraliyeva Sh., Ganiyeva Sh. Umumiy tilshunoslik. – Chimkent, 2023.
5. Sattarova N.O. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Leksikologiya. (O‘quv qo‘llanma). –Toshkent: Metodist, 2023
6. Xolmanova Z. Tilshunoslik nazariyasi. (Darslik). –Toshkent: Nodirabegim. 2020.
7. Normamatov S. Leksikografiya asoslari. (O‘quv qo‘llanma). –Toshkent, 2020.
8. Xolmanova Z. Kompyuter lingvistikasi. –Toshkent, 2019.
9. Jamolxonov H.A. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –Toshkeht.: O‘zbekiton milliy ensiklopediyasi. 2013.
10. Abdurahmonov G‘., Shukurov SH., Mahmudov Q. O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi. – T.,“O‘qituvchi”, 2008.
11. Muxtorov J., Sanaqulov O‘. O‘zbek adabiy tili tarixi. – T. O‘qituvchi. 1995.
12. Tilshunoslik nazariyasi va metodologiyasi. Tuzuvchi: H. Dadaboev. – T. 2004.
13. Xolmanova Z. Tilshunoslikka kirish.–Toshkent, 2007.

14. Nurmonov A., Iskandarova Sh. Tilshunoslik nazariyasi. –Toshkent: Fan, 2008.
15. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. 3 jildli. –Toshkent: Akademnashr, 2012.
16. Rafiyev A. Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi. –T., 2004.
17. To‘ychiboyev B., Hasanov B. O‘zbek dialektologiyasi. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, –T., 2004.
18. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. – T. 2011.

Qo‘shimcha adabiyotlar:

1. Lutfullayeva D. Assotsiativ tilshunoslik nazariyasi. –Toshkent, 2017.
2. Ashirboyev S., Azimov I.,Rahmatov M., G`oziyev A. Eski o‘bzek tili va yozuvi praktikumi. –T., 2006.
3. Abduazizov A., Sheremetova A. Общее yazыkoznanie. – T., 2004.
4. Nurmonov A. Struktur tilshunoslik: ildizlari va yo‘nalishlari. –Andijon. 2006.
5. Nurmonov A. O‘zbek tilshunosligi tarixi. –Toshkent, 2002.
6. Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi. O‘UM, O‘zMU 2011.
7. Murodova N. O‘zbek adabiy tili va shevalar leksikasining qiyosiy tadqiqi. –T., Fan, 2005.
8. O‘zbek dialektologiyasi. O‘UM, O‘zMU 2011. O‘zbek filologiyasi fakulteti kutubxonasi.
9. Ne’matov H., Rasulov R. O‘zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. –Toshkent: O‘qituvchi, 1995.
11. Mahmudov N., Nurmonov A. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi. Sintaksis. Toshkent: O‘qituvchi, 1995.
12. Nurmonov A. va boshqalar. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi. Morfologiya. Toshkent: Yangi asr avlodi. 2001.
13. www.dersimiz.com
12. www.altinmiras.com
13. www.thinsan.com

Savollar:

1.Til va nutq antinomiyasi.

2.Til strukturasi va funksiyasi. Tilning belgilik xususiyatlari.

3.Til birliklarining belgisiz xususiyatlari. Til ochiq va dinamik sistema sifatida. 4.

Morfologik sathning ikki tipi. Sintaktik sath birliklari.

5.Tilning leksik-semantik sathi. Til strukturasi nazariyasi.

6. Izomorfizm. Til sathlari iyerarxiyasi.

7. An’anaviy va sistemaviy tilshunoslik munosabati masalalari.

8. An’anaviy yo‘nalishlar. Yangi yo‘nalishlar.

9. Fonetika va fonologiya muammolari.

10. So‘z yasalishi muammolari.

11. Morfemika muammolari.

12. Leksikologiya muammolari.

13. Lingvistikada maydon nazariyasi.

14. Morfologiya. So‘z turkumlari talqini. Mustaqil so‘zlar. Yordamchi so‘zlar talqini.

15. Sintaksis. Yangi qarashlar. Gap bo‘laklari talqini. Binar va trenar tamoyillar.

16. Mazmuniy sintaksis.

17. Lingvistik ta’limotlar tarixi.

18. Struktur tilshunoslikning asoslari va yo‘nalishlari.

19. Tilshunoslikda “paradigma” tushunchasi. Tilshunoslikda paradigmalarning o‘zgarishi masalasi.

20. Paradigmalarning qiyosiy-tarixiy, sistem-struktur va antropotsentrik turlari.

21.Bilimlarning yangi antropotsentrik paradigmasi va uning lingvokulturologiyadagi o‘rni.

22.Lingvokulturologiyaning boshqa fanlar orasidagi maqomi.

23. Lingvokulturologiyaning etnolingvistika, sotsiolingvistika va etnopsixolingvistika bilan chambarchas bog‘liqligi.

24. Madaniyat haqidagi tasavvurlarning tilda namoyon bo‘lish usullari.Olamning lisoniy manzarasi.Olamning konseptual manzarasi. “Geshtalt” tushunchasi.

25. Paremalarning lingvomadaniy jihatlari. Insonning til va madaniyatdagi o‘rni. Inson – milliy mentallik va til egasi.

26. Nutqning emotsionalligi va ekspressivligini ifodalovchi vositalar. Matn – kommunikatsiyaning asosiy birligi.

27. Matnning aktual bo‘linishi: matnda tema va rema munosabati.

28. Lingvistik belgining umumsemiologik tabiati. Lingvistik pragmatikaning amaliy shakllanishi. Lingvistik pragmatikaning nazariy shakllanishi.

29. Pragmalingvistikaning til sathlariaro munosabati. Pragmatika va semiotika.

30. O‘zbek adabiy tili va uning tarixiy ildizlari.

31. O‘zbek xalq tili taraqqiyotining ilk davri. M.Koshg‘ariyning «Devonu lug‘otit turk» asari. M.Koshg‘ariy – qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning asoschisi.

32. A.Navoiy – o‘zbek adabiy tilining asoschisi. «Muhokamat ul - lug‘at ayn» asari.

33. Sistema va struktura. Til sistemasining sathlari.

34. Til va nutq. Paradigmatika va sintagmatika.

35. Til va tafakkur. Til va jamiyat, sotsiolingvistika.

36. Tilning kelib chiqishi. Til va yozuv.

37. Tillarning tasnifi. Lingvistik oqimlar va metodlar.

38. Tilshunoslik tarixi. Qadimgi hind tilshunosligi.

39. Qadimgi grek tilshunosligi.

40. O‘rta asrlarda arab tilshunosligi.

41. Markaziy Osiyo tilshunosligi tarixi.

42. Turkiy tillar taraqqiyotining umumiy tomonlari.

43. Oltoy tillar guruhi. Tungus-manjur va turk mo‘g‘ul tillarining o‘zaro munosabati.

44. O‘zbek shevalarining o‘rganilishi. Transkripsiya.

45. Lingvistik geografiya haqida. Areal lingvistika.

46. So‘zning semantik strukturasi. Monosemiya va polisemiya.

47. LSG va mazmuniy maydon.

48. Affiksoidlar, so‘zning morfem tuzilishidagi ayrim o‘zgarishlar.

49. Gapning aktual bo‘linishi. Tema. Rema.

50. Paralingvistika va muomala madaniyati. Muloqot xulqining funksionallashuvi.

51. Muloqot xulqining funksionallashuvi. Notiqlikda Navoiy saboqlari.

52. Gapda shakl va mazmun. Shakliy va mazmuniy birliklar o‘rtasidagi nomutanosiblik.

53. Sintaksis. Dialektal sodda gaplar. Qo‘shma gaplarning dialektal belgilari.

54. Turkiy tillarning leksik xususiyatlari. Umumturkiy so‘zlarning muhim belgilari.

55. Turkiy tillar taraqqiyotining umumiy tomonlari. Oltoy tillar guruhi.

56. XX asr boshlari o‘zbek tilshunosligi.

57. Shevalarni farqlovchi asosiy lug‘at xususiyatlari, ularda pleonazm.

58. O‘zbek sistem tilshunosligi. Tilshunoslikdagi yangi yo‘nalishlar.

59. XV-XIX asrlarda yaratilgan lug‘atlar. Aloyi binni Muhibiy, Tole Imoniy, Muhammad Rizo lug‘atlari.

60. Turkiy tillar fonetikasi. Genetik o‘xshashliklar, unli va undoshlar, singarmanizm va urg‘u.

61. Shevalarning grammatik xususiyatlari. Otlarda ko‘plik, egalik. Fe’l mayl, zamon, nisbatlari.

62. Lug‘aviy birliklarning tarixiy-etimologik shakllanishi jihatidan tavsifi.

63. Muloqot xulqining hudud jihatdan xoslanishi.

64. Murakkab qo‘shma gaplar. Bog‘lanish usullari. Sintaktik sinkretizm.

65. Muloqot xulqi va milliy mafkura.

66. Ergash va bosh gaplarni farqlash asoslari, ularni biriktiruvchi vositalar.

67. Uch lahjaga xos farqlanishlar.

68. O‘rta va yangi asrlarda Yevropa tilshunosligi.

69. XIX asr oxiri - XX asr boshlari o‘zbek adabiy tili. Til va uslub meyorlarining shakllanishi.

70. Iste’mol doirasiga ko‘ra o‘zbek tilidagi so‘zlar, chegaralanmagan va chegaralangan leksika.

71. Sukut va kommunikativ mazmun notiqlikning birinchi sharti.

72. Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Avaz O‘tar xizmatlari. Publitsistik uslubning paydo bo‘lishi.

73. V.Gumboldt, A.A.Potebnya, F.de Sossyur va boshqalar ta’limoti.

74. Turkiy tillarning grammatik xususiyatlari.

75. O‘zbek shevalari leksikasi. An’anaviy leksika.

76. So‘zlarning birikish usullari. Sodda va qo‘shma gaplar.

77. Morfologiya. So‘zlarni turkumlarga ajratish tamoyillari.

78. Lingvistik pragmatikaning xususiy masalalari.

79.Konversiya va uning ko‘rinishlari. So‘z turkumlarining ko‘chishi.

80. Ravish. Ma’no turi. Grammatik belgilari. O‘zbek tilshunosligida ravishning talqini.

81. Ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklamalar. Uch lahjaga xos farqlanishlar.

82. Gap bo‘laklari. Ularning tasnifi. Bosh bo‘laklar, ularning talqini. Ikkinchi darajali bo‘laklar, ularning turlari.

83. Turkiy tillarda yordamchi so‘z turkumlari.

84. Qo‘shma gap. Asosiy belgilari. Qo‘shma gaplar tasnifi.

85. Amerika deskriptiv lingvistikasi.

86. Turkiy tillarda sodda va qo‘shma gaplar.

87. O‘zbek tilida so‘z yasalishi. So‘z turkumlarida so‘z yasalishi.

88. Fe’l. Ma’no turlari. Fe’lning grammatik kategoriyalari.

89. Sodda gapni murakkablashtiruvchi vositalar.

90. Mustaqillik davri o‘zbek tilshunosligi.

91. Pragmalingvistika haqida nazariyalar.

92. Eski o‘zbek yozuvi matnlari. XIV-XV asr matnlari tarixi o‘rganilishi.

93. Ayol va erkaklar nutqining ijtimoiy tabiati va o‘ziga xos xususiyatlari.

94. Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig» asari tili. A.Yassaviyning «Devoni hikmat» asari, lingvistik xususiyatlari.

95. Empirik va ratsional bilishda til va tafakkur munosabati.

96. Jahon tilshunosligidagi yangi yo‘nalishlar.

97. Lingvokulturologiya tarixi va nazariy asoslari.

98. Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy asarlari tili.

99. M.Koshg‘ariy – qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning asoschisi.

100.Turkiy tillarning leksik xususiyatlari. Umumturkiy so‘zlarning muhim belgilari.